

## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

2018 yil yanvar- fevral holatiga

Davlat statistika qo`mitasiga 2018 yilning yanvar-fevral holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan **314 ta** (o'tgan yilning shu davrida 444 ta) murojaatlar kelib tushgan.


Tahlillarga ko`ra, murojaatlarning **45,5 foizi (143 ta)** jismoniy shaxslar va **54,5 foizi (171 ta)** yuridik shaxslarning murojaatlariga to`g`ri kelgan.

Murojaatlarning asosiy qismi, ya`ni **243 tasi (jamiga nisbatan 77,4 foiz)** – Toshkent shahridan va **27 tasi (8,6 foiz)** – Toshkent viloyatidan kelib tushgan.


Davlat statistika qo`mitasi rahbariyati tomonidan O`zbekiston Respublikasi hududlaridagi shahar va tumanlarda sayyor shaxsiy qabullar o`tkazilgan. Ushbu sayyor qabullarda **18 ta** jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining murojaatlari ko`rib chiqilgan.

Murojaatlar (kelib tushishi bo'yicha)	Soni	Ulushi %
O`zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;	4	1,3
Davlat statistika qo`mitasi Raisi virtual qabulxonasi orqali;	29	9,3
Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali;	18	5,7
Qo`mitaning elektron veb-sahifasi orqali;	46	14,7
To`g`ridan-to`g`ri kelib tushgan yozma murojaatlar;	199	63,3
Qo`mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabullaridagi og`zaki murojaatlar;	18	5,7

Soni – birlikda



**Ulushi—foizda**



<b>Murojaatlar: (mazmun-mohiyat bo'yicha)</b>	<b>Soni</b>	<b>Ulushi, %</b>
Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlari ma'lumotlarini taqdim etish;	139	44,2
Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, chiqarish, statistik kodlar	22	7,0
Nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarni olish;	71	22,6
Statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish;	37	11,8
O'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam berish so'ralgan;	19	6,0
Qo'mita vakolatlari va faoliyati bo'yicha ma'lumot olish;	8	2,5
Boshqa masalalarda kelib tushgan murojaatlar;	18	5,9

**Eslatib o'tamiz:**

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi,

“Ishonch telefon”lari: (71) 230-81-80/ 230-81-82

Davlat statistika qo'mitasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish: (71) 230-81-81

Raisning virtual qabulxonasi—“www.stat.uz”

Pochta manzili - info@stat.uz, hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari “my.gov.uz” portal sahifalari orqali Davlat statistika qo'mitasi rahbariyati qabuliga “Onlayn” tarzda yozilish hamda elektron shaklda yozma murojaat etishingiz mumkin.

**Davlat statistika qo'mitasi**

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:

**M.Normatov**  
(0371) 230-81-24